


IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)


2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **57,6 %** ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida **1 165** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **54,4** foizni tashkil qildi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 395 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 230 ta, sanoat tarmog'ida 212 ta, yashash va ovqatlanishda 84 ta, qurilish tarmog'ida 53 ta, axborot va aloqada 47 tani tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yilning yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning 57,6 foizi (2023- yil yanvar-martida 56,9 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1 743,6 mlrd. so'mni (23,8 foiz) (faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 202 tani tashkil etdi);



3 609,9 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 99,8 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 4 703 tani tashkil etdi;



3 986,3 mlrd.so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 46,0 foizi) 2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 359,1 foizni tashkil etdi;



1 532,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 73,9 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 2 270 tani tashkil etdi);



- avtomobil transporti yuk aylanmasining 6,8 foizga (viloyatning jami avtomobil' transporti yuk aylanmasining 71,7 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 7,2 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 95,3 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 824 tani tashkil etdi);




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 95,6 foizi yoki 4783,8 mlrd. so'm, xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 25,5 foizi yoki 4 982,7 mlrd. so'mni, tashkil qildi. faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 10 228 ta




22,3 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 18,4 foizi) 122,8 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 72,4 foizi) (hisobot davrida 112 ta kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport hamda 214 tasi tomonidan import operatsiyalari amalga oshirildi).

2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 609,9	98,8
Sanoat	1 743,6	23,8
Qurilish	1 532,7	73,9
Chakana savdo	4 783,8	95,6
Yuk tashish, mln tn.	97,8	87,2
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	70,3	90,9
Eksport, mln. AQSH doll.	22,3	18,4
Import, mln. AQSH doll.	122,8	72,4

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2024- yil 1- aprel holatida 41 925 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (40 752 ta) 102,9 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida barcha ro'yxatdan o'tganlarning (35,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (21,3 %), sanoat (14,5 %), qurilish (8,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (5,8 %), tashish va saqlash (2,9 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1,9 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.

2024- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




2024- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi




Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi (140,5 mlrd. so'm), Kasbi (140,9 mlrd. so'm), Chiroqchi (144,1 mlrd. so'm), Mirishkor (237,9 mlrd. so'm), Qarshi shahri (294,7 mlrd. so'm), tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Qarshi (5 011,8 mlrd. so'm), Shahrisabz (1 162,7 mlrd. so'm) shaharlari va Chiroqchi (1 722,4 mlrd. so'm) va Koson (1 661,6 mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2024- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari



2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 57,6 foizni tashkil qilib, 2023- yilning mos davrida 56,9 % foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Ko'kdala tumani (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Shahrisabz shahri (79,2 %), Chiroqchi (69,9 %) tumanlariga va eng past ulushi Nishon (2,5 %) tumaniga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Mirishkor (86,0 %), Koson (84,8 %), Qamashi (84,7 %), Kitob (83,8 %), Kasbi (82,9 %), Ko'kdala (80,7 %), Yakkabog' (80,5 %), Nishon (79,3 %), Qarshi (76,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.